

## ANDIJON VILOYATI QO'RG'ONTEPA TUMANIDA 2021-2023-YILLARDA AMALGA OSHIRILGAN TASHABBUSLI BYUDJETLASHTIRISH JARAYONI

*Ermатов Jasur, Xayrullayev Dilshod, Karimov Nodirbek  
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti,  
MMT 83-guruh talabalari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumanida 2021-2023 yillarda tashabbusli byudjetlashtirish jarayonida ajratilgan mablag'lar miqdori va amalga oshirilgan loyihalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** tashabbusli byudjet, openbudget.uz, tashabbus, ovoz berish, moderatsiya, ishchi komissiya, g'olib loyihani aniqlash, "Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi", shartnoma tuzish.

So'nggi yillarda mamlakatimizda byudjet ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Biz mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tashabbusli byudjetlashtirish amaliyoti, mavjud holatni o'rganish uchun Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumani misolida 2021-2023-yillarda "Tashabbusli byudjet" loyihalari va ularning ijrosi yuzasidan olib borilgan ishlar bilan bog'liq ma'lumotlar bilan tanishib chiqdik.

Quyidagi 1-jadvalda O'zbekiston Respublikasi Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumanida 2021-2023 yillarda "Tashabbusli byudjet" loyihalari va ularning ijrosi yuzasidan olib borilgan ishlar bilan bog'liq ma'lumotlarni tahlil qilib chiqamiz.

### 1-jadval.

**Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori<sup>1</sup>**

(ming so'mda)

T/r	Ko'rsatkich nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Yil boshiga qoldiq	0	519 406	1 054 340

<sup>1</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

2.	Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga o‘tkazilgan mablag‘lar	1 500 000	11 692 960	23 307 366
3.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan	1 475 500	11 725 000	23 530 000
3.1	Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag‘	1 350 448	9 712 052	20 722 480
3.2	Hisobvaraqlardagi qoldiq	105 000	3 112 943	2 807 520
4.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘	44 552	652 366	831 706

Yuqoridagi ma’lumotlardan shuni ko’rishimiz mumkinki 2021-yil boshiga qoldiq mablag‘i loyiha 2021-yildan boshlab amalga oshirilganligi sababli yo’qligini ko’rishimiz mumkin.

2022-yil esa yil boshiga qoldiq 519 406 000 so’mni, 2023-yil 1 054 340 000 so’mni tashkil qilgan. Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga o‘tkazilgan mablag‘lar 2021-yil 1 500 000 000 so’mni, 2022-yil 11 692 960 so’mni, 2023-yil 23 307 366 000 so’mga oshgan.

“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar mos ravishda 2021-yil 1 475 500 000, 2022-yil 11 725 000 000 so’mni, 2023- yilda esa 23 530 000 000 so’mni tashkil qildi.

“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘lari 2021-yil 44 552 000 so’mni, 2022-yili 652 366 000 so’mga, 2023-yil esa bu ko’rsatkich 831 706 000 so’mni tashkil qildi .

Tashabbusli byudjet loyihalari doirasida 2021-2023 yillarda Andijon Viloyati Qo’rg’ontepa tumanida amalga oshirilgan tadbirlarning asosiy qismini umumta’im maktablarini ta’mirlesh, sog’liqni saqlash muassasalarini ta’mirlesh, mahalliy ichki yo’llarni ta’mirlesh va boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta’mirleshga yo‘naltirilganligini ko’rishimiz mumkin.

## 2-jadval

### Andijon viloyati Qo’rg’ontepa tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar<sup>2</sup>

<sup>2</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni			Sarflangan mablag' (ming so'mda)		
		2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
<b>Jami</b>		<b>4</b>	<b>14</b>	<b>20</b>	<b>1 350 447</b>	<b>12 825 000</b>	<b>23 530 000</b>
1.	Hududiy ichki yo'llar	3	7	5	1 129 947	6 635 000	6 260 000
2.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	1	2	11	220 500	2 000 000	12 870 000
3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		1	1		990 000	1 200 000
4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		1	2		1 200 000	2 200 000
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		3	1		2 000 000	1 000 000
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash						
7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari						
8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish						

	va ko'klamzorlashtirish)						
9.	Boshqa tadbirlar						

Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlarda hududiy ichki yo'llarni ta'mirlashga mos ravishda 2021-yil 3 ta loyiha bo'yicha 1 129 947 942 so'm, 2022-yil 7ta loyiha 6 635 000 000 so'm, 2023-yil uchun 5 ta loyiha 6 260 000 000 so'm pul mablag'lari yo'naltirilgan.

Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash ishlari bo'yicha 2021-yil 1 ta loyiha 220 500 001 so'm, 2022-yil 2 ta loyiha 2 000 000 000 so'm, 2023-yil uchun 11 ta loyiha 12 870 000 000 so'm pul mablag'lari maqsadli yo'naltirilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash borasida olib borilgan ishlar ko'lami ham quvonarli, 2022-yil 1 ta loyiha bo'yicha bu ko'rsatkich 990 000 000 so'mni tashkil yetgan bo'lsa, 2023-yil esa bu ko'rsatkich 1 200 000 000 so'mga yetganligini ko'rishimiz mumkin.

Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash loyihalariga 2022-yil 1ta loyiha uchun 1 200 000 000 so'm, 2023-yilda 2ta loyiha uchun 2 200 000 000 so'm pul mablag'lari yo'naltirilgan.

Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash, "Tashabbusli byudjet" da g'olib deb topilgan loyihalalariga 2022-yil 3 ta loyiha 2 000 000 000 so'm, 2023-yil 1 ta loyiha uchun 1 000 000 000 so'm pul mablag'lari maqsadli yo'naltirilgan.

Endi biz quyidagi 3-jadvalda Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumanida fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakillanish manbalarini ko'rib chiqamiz.

### 3-jadval

#### Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakillanish manbalari<sup>3</sup>

(ming so'mda)

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar		10 478 560	13 283 000
Mahalliy budjetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari			

<sup>3</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar		675 000	1 701 713	912 209
Shu jumladan	Erkin qoldiq mablag'lari		306 000	362 150
	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi		1 395 713	334 673
	Iqtisod qilingan mablag'lar			
<b>Jami ajratiladigan mablag'lar</b>		<b>675 000</b>	<b>13 881 986</b>	<b>14 907 418</b>

Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar, 2022-yil 10 478 560 000 so'mni, 2023-yilda bu ko'rsatkich 13 283 000 000 so'mni tashkil qildi. Bundan ko'rinib turibdiki 2023-yil 2022-yilga nisbatan tuman mahalliy byudjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foizi qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar 27% ga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Tuman mahalliy byudjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar 2022-yil 1 701 713 000 so'mni tashkil qilgan, 2023-yil 912 209 000 so'mga yetgan. Bu ko'rsatkich 2023-yil, 2022-yilga nisbatan 46% ga kamaygan.

Erkin qoldiq mablag'lari 2022-yil 1-chorakda 306 000 000 so'mni, 2023-yil 362 150 000 so'mni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. 2023-yil, 2022-yilga nisbatan 18% ga oshgan.

Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi, 2022-yil 1 395 713 000 so'm, 2023-yil 350 059 000 so'mni tashkil qilgan.

#### 4-jadval

### Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumani tashabbusli byudjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi<sup>4</sup>

T/r	Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Jami to'plagan	Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori
-----	--------------------------------------	----------------	---

<sup>4</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

		<b>ovozlar soni</b>	(ming so'm)
<b>2021-yil</b>			
1.	Beton stolba	2	105 000
2.	Maktablarga chiqindi konteyner	91	220 500
3.	Ichki yo'llarni ta'mirlash	153	150 000
4.	Ichki yo'llarni ta'mirlash	2	500 000
5.	Ichki yo'llarni ta'mirlash	331	500 000
<b>2022-yil</b>			
1.	Ichki yo'llarni ta'mirlash	1 358	985 000
2.	Axborot Kutubxona markazini ta'mirlash	1 839	500 000
3.	Turon zamin MFY idorasi qurish	1 793	500 000
4.	Ichki yo'llarni ta'mirlash	1 935	1 000 000
5.	36-DMTT Bo'sh turgan binosini ta'mirlash	1 948	900 000
6.	35-sonli maktabni qayta ta'mirlash	1 785	800 000
7.	Ichki yo'llarni ta'mirlash	3 600	1 150 000
8.	Qorasuv tibbiyot birlashmasi KTMP ning padval qismini xonalar yetishmasligi sababli kasallar qabul qilish uchun xonalarga o'zgartirish joriy ta'mirlash	3636	1 200 000
9.	Boshqa loyihalar	13 039	5 700 000
10.			
<b>2023yil</b>			
1.	Mustaqillikning 15 yilligi MFY da joylashgan Qorasuv shahar Tibbiyot birlashmasiga Tipavoy Rengen aparat va 30kvlik quyosh panel o'rnatish	6 661	1 000 000
2.	Qo'rg'ontepa tumani XTB tasarufidagi 65- IDUM ni qo'rg'on devorlarini ta'mirlash. Sinfxonalarining pol qismini va eshik derazalarni almashtirish	6 665	1 200 000
3.	Qo'rg'ontepa tumani 17-maktab ichki qismidagi eshik va romlarni almashtirish, maktabning sport	6 646	1 000 000

	maydonchasiga usti yopiq suniy qoplamali mini stadion qurish		
4.	Mustaqillik MFY da joylashgan IT parkni joriy ta'mirlash	6 585	1 000 000
5.	Qutqar MFY da Islom nuri ko'chasini 2000 metr qismini asfalt qilish	6 482	1 000 000
6.	Qo'rg'ontepa tumani 54-umumiy o'rta ta'lim maktabining barcha sinfxonalarining devorlari, eshiklari, romlari, pol qismi, sport zalining ichki devorlari va tom qismini ta'mirlash	6 097	1 200 000
7.	Sohibqiron MFY da joylashgan 36-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabini joriy ta'mirlash	5 569	1 200 000
8.	Sohibqiron MFY da joylashgan 35-maktab hududida yopiq turgan futbol o'yingohi qurilishiga tashabbuskorlik	5 026	1 200 000
9.	Yangi hayot MFY da joylashgan 41-IDUM ni joriy ta'mirlash	4 474	1 200 000
10.	Boshqa loyihalar	46 227	13 530 000
11.			

Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida 2021-yili jami 5 ta loyiha g'olib deb topilib ularga 1 475 500 000 so'm pul mablag'lari sarflandi, 2022-yil 10 dan oshiq loyihalar "Tashabbusli byudjet" loyihasi g'olibi deb topilib, bu loyihalarni moliyalashtirish uchun jami 4 500 000 000 so'm pul mablag'lari yo'naltirilgan, bunda jami ovozlar soni 9 538 tani tashkil qilgan, 2023-yilda ham 10 dan oshiq loyihalar, loyiha g'olib deb topilib 23 530 000 000 so'm miqdordagi pul mablag'lari maqsadli yo'naltirilgan, ovozlari soni esa 43 937 tani tashkil qilgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki "Tashabbusli byudjet" loyihalarining g'olib deb topilganlar, umumta'lim maktablari binolarini ta'mirlash sohasiga, shu jumladan 2021-yilda Qo'rg'ontepa tumanida 1 ta umumta'lim maktabi ta'mirlab, qayta jihozlangan, 4 ta holatda mahalliy ichki yo'llarga asfalt qoplamasini qoplash loyihalariga. 2022-yilda 4 ta ichki va mahalliy yo'llarni ta'mirlash va asfalt qoplamasi yotqizish bilan 2 ta holatda umumta'lim maktablari binolarini ta'mirlash, qolgan loyihalar esa boshqa ijtimoiy obyektlarni ta'mirlash va jihozlash kabi ishlar bilan "Tashabbusli byudjet" da g'olib deb topilgan. 2023-yilda, 6 ta umumta'lim maktablarini ta'mirlash va qayta jihozlash loyihalari, qolgan loyihalar esa boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash kabi loyihalari bilan g'olib deb topilgan.

Xulosa qilib aytganda Prezidentimizning PQ-5250 sonli qaroriga asosan 2021-2023 yillar mobaynida amalga oshirilgan “Tashabbusli byudjet” loyihalari borasida amalga oshirilgan islohotlar o‘z natijasini berdi. Tashabbusli byudjet loyihalari ijrosini ta’minlashda va bu loyihalarga ovoz yig‘ish jarayonida nafaqat chekka chekka hududlarimiz obod bo‘lmoqda, balki xalqimizning jipsligi, birdamligi va bir biriga bo‘lgan mehri oshmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:“Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O‘quv qo‘llanma." Toshkent:“Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O‘quv qo‘llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Хайдаров НХ “Молия: умумдавлат молияси”. Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O‘quv qo‘llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.
9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
- 10.У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
- 11.У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
- 12.Ўроқов У, Иргашев И, Файбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
- 13.УУ О'роқов, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
- 14.Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журналы. 2020;4.
- 15.Ўроқов У. Файбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Vaktria press. 2016.
- 16.Уроков У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
- 17.Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020



18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
21. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
22. G'aybullayev O, O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси" илмий электрон журнали. 2020.
25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления. "Молия" илмий журнали. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
28. Машарипов И. Б. Фуқаролик жамиятининг ривожланиш даражасини баҳолаш индекслари. ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ. 2018. 1/6 сон